

BYUDJET TASHKILOTLARIDA ASOSIY VOSITALARNING AUDITORI

*Umirova Mavjuda - Bank Moliya akademiyasi
Davlat Moliyaviy Nazorati va Auditi (DMNA)
yo'nalishi 23-23-guruh magistratura tinglovchisi*

Annotatsiya: Maqolada Budget tashkilotlarida asosiya vositalar auditi faoliyatining nazariy xamda amaliy jihatlar va byudjet tashkilotida ichki auditni samarali tashkil etish yo'llari, ichki auditni maqsadi va vazifalari, prinsiplari, byudjet tashkilotlarida buxgalteriya bo'limlari bo'yicha tekshirish o'tkazishni o'z usullari, tekshiriladigan bo'limlarni nazorat qilish ketma-ketligi bo'yicha yondoshuvlar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: byudjet tashkiloti, ichki audit, audit usullari, samaradorlik, auditor, sifat, baholash, intizomli yondoshuv, risk, aktiv, davlat mulki.

Аннотация: В статье рассмотрены теоретические и практические аспекты проверки основных средств в бюджетных организациях и пути эффективной организации внутреннего аудита в бюджетной организации, цели и задачи, принципы внутреннего аудита, методы проведения проверок. рассмотрены подходы к последовательности контроля проверяемых участков.

Ключевые слова: бюджетная организация, внутренний аудит, методы аудита, эффективность, аудитор, качество, оценка, дисциплинированный подход, риск, актив, государственная собственность.

Abstract: The article discusses the theoretical and practical aspects of checking fixed assets in budgetary organizations and ways to effectively organize internal audit in a budgetary organization, goals and objectives, principles of internal audit, methods of conducting audits. approaches to the sequence of control of inspected areas are considered.

Key words: budgetary organization, internal audit, audit methods, efficiency, auditor, quality, assessment, disciplined approach, risk, asset, state property.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.09.2018 yildagi PQ-3946 sonli "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori qabul qilindi. Ushbu Qarorga asosan mamlakatimizda auditning normativ-huquqiy va uslubiy bazasi shakllantirildi, shuningdek, auditorlik faoliyatini litsenziyalashning soddalashtirilgan va muddatsiz tizimi joriy etildi, bu auditorlik xizmatlari bozorining shakllanishiga va mahalliy auditorlik tashkilotlari auditorlik kompaniyalarining yirik xalqaro tarmoqlariga kirishini ta'minlashga imkon yaratdi. Hozirgi kunda dunyo mamlakatlarida iqtisodiyotni rivojlantirishda asosiy

vositalar hisobi va auditing nazariy hamda uslubiy asoslarini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Asosiy vositalarni tan olish mezonlari, asosiy vositalarni boshlang'ich tannarxida baholash, asosiy vositalarni haqiqiy tannarxi bo'yicha hisob modeli yoki qayta baholangan qiymati bo'yicha hisob modellari asosida baholash tartiblari, asosiy vositalarni qayta baholash natijalarini aks ettirish, asosiy vositalarni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish masalalarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, xalqaro audit standartlari asosida xo'jalik yurituvchi subyektlar asosiy vositalarni audit qilish metodologiyasini takomillashtirish o'ta dolzarb hisoblanadi. Shu bois, mazkur dissertasiya ishi dolzarb mavzuga bag'ishlangan. Odatda, u yoki bu korxonada va tashkilotning auditorlik tekshiruvchi auditorlik firmalaridan birida ishlovchi mustaqil auditorlar guruhi tomonidan o'tkaziladi. Auditorlik tekshiruvchi jarayonining samaradorligini oshirish uchun, ya'ni unda ishlab chiqariladigan buxgalteriya hisobi to'g'risidagi ma'lumotlarning malakali, haqiqiy va sifatli bo'lishini ta'minlash uchun uni aniq va to'g'ri tashkil eta bilish zarur bo'ladi. Auditor asosiy vositalar auditini boshlashda xo'jalikka kelishi bilan birinchi navbatda quyidagilarni aniqlashi zarur:

⊗ korxonaning asosiy vositalar hisobini tashkil qilish bo'yicha tekshirilayotgan hisobot davridagi hisob yuritish siyosati, uning o'tgan hisobot davridagiga nisbatan o'zgarishi bilan tanishish;

⊗ asosiy vositalarning so'nggi inventarizatsiya (ashyoviy ro'yxat)dan o'tkazilishi va uning natijalarini aniqlash;

⊗ asosiy vositalarni so'nggi qayta baholash materiallari va ularning hisobda aks ettirilishi bilan tanishish. Bunda auditor O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, Iqtisodiyot va Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo'mitasining tegishli me'yoriy xujjatlariga muvofiq korxonada balansida turadigan va qayta baholangan asosiy vositalar tiklanish qiymati bo'yicha aks ettirilishini nazarda tutishi lozim.

⊗ korxonada asosiy vositalarni hisobdan chiqarish bo'yicha doimiy komissiya tashkil etilishi: asosiy vositalarni foydalanish joylarida saqlash uchun javobgar shaxslar haqida buyruq (farmoyish) ning mavjudligini tekshirish, shuningdek, ular bilan shaxsan to'la moddiy javobgarlik to'g'risida shartnomalar tuzilganligini aniqlash;

⊗ buxgalteriyada asosiy vositalar kartotekasi (AV 6 va AV 8 shaklidagi inventar kartochkalar) va kompyuterda yoki qo'lda bajariladigan variantdagi aniq inventar ro'yxati (AV 9 shakl) yuritilishiga ishonch hosil qilish lozim;

⊗ ishdan bo'shab ketgan moddiy javobgar shaxslar haqida ma'lumotlar (buyruqlar, xodimlar ro'yxati)ni o'rganish;

⊗ asosiy vositalar hisobini yuritish qoidalari bayon qilingan amaldagi me'yoriy xujjatlar va asosiy vositalar hisobiga doir yagona shakldagi (unifikatsiyalangan)

idoralararo dastlabki xujjatlarning shakllari bilan korxonada buxgalteriyasi qay darajada ta'minlanganligini aniqlash. Asosiy vositalarni auditorlik tekshiruvdan o'tkazishda foydalaniladigan manbalar buxgalterlik hisobning korxonada qabul qilingan tashkiliy shakliga ham bog'liq. Bular hisobni qo'lda yuritish sharoitida: jurnal orderlar, vedomostlar, kartochkalar: avtomatlashtirilgan hisob sharoitida esa kompyuter dasturlari, mashinagrammlaridir. Lekin shuni unutmaslik kerakki, hisobning har qanday shakli sharoitida ham asosiy vositalarning xarakatiga oid muomalalar (kirimi, chiqimi, xo'jalik ichidagi siljishi, ta'mirlanishi) me'yoriy xujjatlar va dastlabki xujjatlashtirishning unifikatsiyalangan idoralararo shakllari bilan rasmiylashtirilishi lozim. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

⊖ asosiy vositalar buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish masalalarini tartibga soladigan asosiy me'yoriy xujjatlar;

⊖ korxonaning hisob siyosati to'g'risidagi buyrug'i;

⊖ asosiy vositalarni hisobga olishda korxonada qo'llaniladigan analitik va sintetik hisob registrlari;

⊖ buxgalteriya hisobotlari;

⊖ asosiy vositalarni qabul qilish-topshirish (ichki siljish) dalolatnomasi (nakladnoyi) (AV-1 shakl);

⊖ ta'mirlangan, qayta jixozlangan va zamonaviylashtirilgan obyektlarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi (AV-2 shakl);

⊖ asosiy vositalarni hisobdan chiqarish dalolatnomasi (AV-Z shakl);

⊖ avtotransport vositalarini hisobdan chiqarish dalolatnomasi (AV-4 shakl);

⊖ asosiy vositalarni hisobga oladigan inventar kartochka (AV-6 shakl);

⊖ asosiy vositalarni hisobga oladigan inventar kartochkalar ro'yxati (AV7 shakl);

⊖ asosiy vositalar xarakatini hisobga oladigan kartochka (AV-8 shakl);

⊖ asosiy vositalarning inventar ro'yxati (ishlatish joylari bo'yicha) (AV-9 shakl).

Auditor ushbu me'yoriy xujjatlar, hisob registrlari va dastlabki xujjatlarda asosiy vositalar xarakatini rasmiylashtirish uchun javobgar shaxslar imzolarining mavjudligi va haqqoniyligiga e'tibor karatib, barcha rekvizitlarning to'g'ri tulg'azilganligini aniqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. «Auditorlik faoliyati to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining 25.02.2021 y. O'RQ-677-sonli Qonuni
2. Дуstmуродов Р.Д. Аудит асослари. Дарслик.: Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2003;
3. Мусаев Х.Н. Аудит. Дарслик. – Т.: Молия, 2003
4. International Accounting Standard 16 Property, Plant and Equipment. EC staff consolidated version as of 16 September 2009.